Akademik Vosil Qobulov tavalludining 100 yilligi nishonlanadi

O’zbekistonda kibernetika fanining asoschilaridan biri bo’lgan yirik olim, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Vosil Qobulovich Qobulov.

V.Q.Qobulov 1921-yil 5-sentyabrda Toshkent shahrida tug’ilgan. 1938-yili o’rta maktabni bitirib, O’rta Osiyo davlat dorilfununining mexanika-matematika kulliyotiga o’qishga kirgan. 1941-yili armiya safiga xizmatga chaqirilishi munosabati bilan dorilfununda o’qish to’xtatilgan. 1941-1945-yillarda V.Q.Qobulov Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo’lgan. 1945-yil urushdan qaytgach, o’qishni Toshkent temir yo’li transporti muhandislari oliygohida qurilish kulliyotida davom ettirgan. 1948-yili o’qishni tugatib Chorjo’y-Qo’ng’irot temir yo’li qurilishida ishlagan. 1950-yil aspiranturaga o’qishga kirgan.

1952-yili “To’g’ri burchakli yassi plastinkaning tekis tarang holatini hisoblashning ba’zi bir usullari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1961-yili esa Moskva davlat universiteti Ilmiy Kengashida “Elastiklik va plastiklik dinamik nazariyasining bir o’lchovli va ikki o’lchovli ba’zi bir masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu dissertatsiya fanda yangi yo’nalish bo’lib, algoritmik mexanikaga asos solgan.

Fanlar akademiyasi va bir necha oliy o’quv yurtlarida Kibernetika va mexanika sohasi bo’yicha bir necha

ilmiy maktablar yaratgan hamda 50 dan ortiq doktorlik va 70 dan ortiq nomzodlik ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan.

Atoqli olim xalq xo’jaligining turli sohalarida foydalanish uchun algoritmlashning nazariy asoslarini yaratish va amaliyotga tadbiq qilishga salmoqli hissa qo’shdi. Uning muhit mexanikasi masalalarini yechishni algoritmlash, inshootlarning zilzilaga bardoshliligi, hisoblash matematikasi muammolarini hal qilish masalalariga bag’ishlab yozgan 500 ga yaqin maqola va 20 dan ortiq monografiyalari keng jamoatchilikka yaxshi ma’lum.

Zahmatkash olim o’z faoliyati davomida jonkuyar ustoz sifatida ko’plab yoshlarga ilm-fan sirlaridan saboq berdi. Akademik V.Qobulovning mamlakatimiz fani rivojiga qo’shgan hissasi davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan fan arbobi”, “O’zbekiston Respublikasi davlat mukofoti”, “El-yurt hurmati” ordeniga sazovor bo’lgan edi.

Bu yil Fanlar akademiyasi tomonidan akademik tavalludining 100 yilligiga bag’ishlangan tadbirlar o’tkazilishi rejalashtirilgan.